


www.practicum.org – badiiy akademiya: nazariya, amaliyot, malaka

Axborot manbaalari

19. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
20. <http://ziyonet.uz>
21. www.urokiakvareli.ru – rangtasvirda ishlash uslublari
22. www.zaholstom.ru – tasviriy san’at turlari bo‘yicha ishlash uchun qo‘llanmalar
23. www.practicum.org – badiiy akademiya: nazariya, amaliyot, malaka.

7. **Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy kengashining «_»_2024 y.dagi_ sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.**
8. **Fan/modul uchun ma’sular:**
Sh.Sh.Tursunov - NamMQI, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrası v/b dotsenti
9. **Taqrizchilar:**
B.Dadaxonov - NamMQI, “Arxitektura” kafedrası dotsenti, a.f.f.d.PhD
SH.E.Axmadjanov – “ZAMONAVIY LOYIHA XIZMATI” MCHJ raisi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK QURILISH INSTITUTI



**“ARXITEKTURAVIY QALAMTASVIR,
RANGTASVIR VA HAYKALTAROSHLIK”
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 700000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish
Ta’lim sohasi: 730 000 – Arxitektura va qurilish
Ta’lim yo’nalishlari: 60730100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha)

Fan/modul kodi AQRH1108	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS – Kreditlar 4,4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek tili		Haftadagi dars soatlari 4,4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	“Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik”	120 1-60(amaliy) 2-60(amaliy)	120	240
2.	<p align="center">I. Fanning mazmuni</p> <p>Bilish va tushunish jihatidan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fan haqidagi nazariy bilimlar hamda amaliy kompetentsiyalarga oid ma'lumotlarni o'rganish; - me'morlikka oid tarixiy an'analar, tajribalar hamda zamonaviy tendentsiyalarni milliy-hududiy xususiyatlar asosida tahlil qila olish; - me'morlik sohasidagi arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlikka oid ilmiy-metodik manbalar, mahsus adabiyotlarni mustaqil tarzda o'rganish hamda shaxsiy xulosalarini tasviriy vositalarda ijodiy-loyihaviy faoliyatga tatbiq eta olish; - namunaviy loyihalarni ob'ektiv baholash natijasida shaxsiy ijodiy loyihalarni yaratish; - me'moriy loyihalarning konstruktiv tuzilishi, ularning elementlarini mantiqiy-kompozitsion yaxlitligini tasvirlashda tasviriy san'atning ifodaviy vositalarining optimal turi va texnikasini tanlay olish va ulardan to'g'ri foydalana olish; - ijodiy loyihalar uchun mustaqil tarzda birlamchi material (namunalar, eskizlar, qoramalar, illyustrativ materiallar va b.) to'plash hamda ulardan ijodiy faoliyatda foydalana bilish. 			

II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi bo'limlar kiradi:

1 – SEMESTR

ARXITEKTURAVIY QALAMTASVIR.

Qalamtasvir o'qitilayotgan fanning asosi bo'lib, amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil ravishda tasviriy san'at namunasini yaratish ustida ishlashni shakllantirishga yo'naltirilgan. Arxitekturaviy qalamtasvir mazmun va mohiyatining yechimini topish, ijodiy mahoratni oshirish arxitektura sohasining zaruriy qismidir.

Arxitekturaviy qalamtasvir amaliy mashg'ulotlariga quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Qalamtasvirda qo'llaniladigan materiallar va jihozlar. Geometrik jismlar guruhini chizish. Geometrik jismlar guruhini chizish murakkab o'quv va ijodiy vazifalar ustida keyingi ishlar uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash imkonini beruvchi muhim bosqichdir. Tasviriy savodxonlik asoslarini o'rganayotgan o'quvchilar uchun geometrik jismlardan tashkil topgan o'quv natyurmort birinchi navbatdagi vazifalardan biridir. Bular geometrik jismlarni qurish qonunlari: jismlarning proporsional nisbati, konstruksiyalari, perspektiva, shaklni yorug'soyada modellashdirish. Bundan tashqari, fazoviy bo'shliqni berishni hisobga olgan holda, tasvirni tonal va kompozitsion birlikka bo'ysundirish ko'nikmalari shakllantiriladi. Mavzu bo'yicha amaliy ish.

2-mavzu. Uy-ro'zg'oq buyumlaridan iborat natyurmort tasvirini chizish. Tasviriy san'atda natyurmort (fransuzcha. jonsiz tabiat) - bu, qoida tariqasida, haqqoniy, kundalik hayot muhitida joylashtirilgan va yaxlit kompozitsion guruhga birlashtirilgan turli xil predmetlarning tasviri. Natyurmort ishlash oqrali - jismlarning proporsional nisbati, konstruksiyalari, perspektiva, shaklni yorug'soyada modellashdirish kabilar, bundan tashqari, fazoviy bo'shliqni berishni hisobga olgan holda, tasvirni tonal va kompozitsion birlikka bo'ysundirish ko'nikmalari shakllantiriladi. Mavzu bo'yicha amaliy ish.

3-mavzu. Interyerni mebel va detallari bilan chiziqli, keng ko'lamda ifodalash (naturadan).

Interyerni tasvirlash qonuniyatlari: perspektiva, jihoz va elementlarning o'zaro munosabati, nisbatlari, konstruktiv tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. Real arxitektura interyeri va jihoz(mebel va b.) va element(ustun, deraza, eshik va boshqajihozlar)ni tasvirlash. Interyerning uch o'lchamli ko'rinishini tasvirlashda chiziqli perspektivaning o'rni. Mavzu bo'yicha amaliy ish.

4-mavzu. Geometrik shakllarga asoslangan hajmli jismlardan arxitekturaviy kompozitsiya. Murakkab tuzilishda(kub, prizma, silindr, konus, shar va hok).

Murakkab tuzilish va konstruksiyaga ega bo'lgan geometrik shakllardan arxitekturaviy kompozitsiya tuzish. Konstruksiyasiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi geometrik shakllar (kub, prizma, silindr, konus, shar va hok)dagi geometrik shakllardan arxitekturaviy kompozitsiya tuzish. Turlicha konstruksiyali geometric shakllarni arxitekturaviy ob'ekt elementlari sifatidagi aloqadorligini tasviriy vositalarda ifodalash. Mavzu bo'yicha amaliy ish.

5-mavzu. Arxitekturaviy bo'lak (gips rozetka) qalamtasviri.

Arxitekturaviy bo'laklarning turlari, shakli va elementlari. Ularni tasvirlash qonuniyatlari. Gips rozetkani tasvirlashda ularning konstruktiv tuzilishlarini geometrik shakllar misolida idrok etish, tahlil qilish va tasvirlash. Naturani tasvirlashda tasviriy san'atning ifodaviy vositalaridan foydalanish. Buyumlarni tasvirlashda qalamtasvir texnikasidan foydalanish. Mavzu bo'yicha amaliy ish.

6-mavzu. Antik davrga mansub gipsdan ishlangan kapitell (ustun yoki pilyastrning ustki qismi). Naturadan Dorik kapiteli tasvirini ishlash. Arxitekturaning antik davrga mansub elementlari, ularning funksiyalari, shakli, konstruksiyasi va badiiy bezak detal(element)lari. Naturani tasvirlashda uning materiallik xususiyatlarini (gipsdan yasalgan oq rangdagi element) ifodalash. Mavzu bo'yicha amaliy ish.

7-mavzu. Dovudning gips boshi yuz qismlarini tasvirini chizish: burun

Boshni chizishga o'tishdan oldin, boshning plastikligining xarakterli xususiyatlarini aniqlaydigan yuzning asosiy qismlarini o'rganiladi. Bularga ko'z,

burun, lablar (og'iz) va quloq kiradi. Ko'pincha bunday qoramalar uchun namuna sifatida buyuk italiyalik Uyg'onish davri haykaltaroshi Mikelanjeloning "Dovid" marmar haykalining yuz qismlarining gips nusxalari qo'llaniladi, ular talabalar chizish uchun klassik tabiiy modellar sifatida qabul qilingan. "Dovud" haykali bosh tuzilishi asosida yuz qismlarini qalamtasvirini ishlash (burun). Mavzu bo'yicha amaliy ish.

8-mavzu. Dovudning gips boshi yuz qismlarini tasvirini chizish: ko'z

Boshni chizishga o'tishdan oldin, boshning plastikligining xarakterli xususiyatlarini aniqlaydigan yuzning asosiy qismlarini o'rganiladi. Bularga ko'z, burun, lablar (og'iz) va quloq kiradi. Ko'pincha bunday qoramalar uchun namuna sifatida buyuk italiyalik Uyg'onish davri haykaltaroshi Mikelanjeloning "Dovid" marmar haykalining yuz qismlarining gips nusxalari qo'llaniladi, ular talabalar chizish uchun klassik tabiiy modellar sifatida qabul qilingan. "Dovud" haykali bosh tuzilishi asosida yuz qismlarini qalamtasvirini ishlash (ko'z). Mavzu bo'yicha amaliy ish.

9-mavzu. Dovudning gips boshi yuz qismlarini tasvirini chizish: lab

Boshni chizishga o'tishdan oldin, boshning plastikligining xarakterli xususiyatlarini aniqlaydigan yuzning asosiy qismlarini o'rganiladi. Bularga ko'z, burun, lablar (og'iz) va quloq kiradi. Ko'pincha bunday qoramalar uchun namuna sifatida buyuk italiyalik Uyg'onish davri haykaltaroshi Mikelanjeloning "Dovid" marmar haykalining yuz qismlarining gips nusxalari qo'llaniladi, ular talabalar chizish uchun klassik tabiiy modellar sifatida qabul qilingan. "Dovud" haykali bosh tuzilishi asosida yuz qismlarini qalamtasvirini ishlash (lab). Mavzu bo'yicha amaliy ish.

10-mavzu. Dovudning gips boshi yuz qismlarini tasvirini chizish: quloq

Boshni chizishga o'tishdan oldin, boshning plastikligining xarakterli xususiyatlarini aniqlaydigan yuzning asosiy qismlarini o'rganiladi. Bularga ko'z, burun, lablar (og'iz) va quloq kiradi. Ko'pincha bunday qoramalar uchun namuna sifatida buyuk italiyalik Uyg'onish davri haykaltaroshi Mikelanjeloning "Dovid" marmar haykalining yuz qismlarining gips nusxalari qo'llaniladi, ular talabalar

chizish uchun klassik tabiiy modellar sifatida qabul qilingan. "Dovud" haykali bosh tuzilishi asosida yuz qismlarini qalamtasvirini ishlash (quloq). Mavzu bo'yicha amaliy ish.

11-mavzu. Odam bosh suyagini uch holatda tasvirini chizish. Bosh suyagi shaklini hajm sifatida tushunishning yo'li faqat, uning fazodagi konstruksiyasi orqali tushunish yotadi. Shuning uchun talabalarni bosh suyagi tuzilishining anatomik xususiyatlari bilan tanishtirish muhimdir. Nima qilayotganingizni tushunmaslik naturaning bema'ni nuxxasiga aylanadi. Aksincha, nimani tasvirilayotganingizni tushunish va buni qanday qilishni bilish muammoni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. Bu naturani diqqat bilan, fikrlab o'rganishni va bosh suyagining malakali tasvirlash uchun - to'g'ri uslubiy ketma- ketlik talab qiladi. Mavzu bo'yicha amaliy ish.

12-mavzu. Qirqimli kalla (Gudon, obrubovka) tasvirini chizish.

Obrubovka - fransuz haykaltaroshi, psixologik portretning ajoyib ustasi Gudonning ekorshesi asosida yaratilgan umumlashtirilgan tekisliklarning gipsli boshi. Ushbu o'quv qo'yilma boshning hajmli-fazoviy tuzilishini qurish, yorug'- soya qonuniyatlari, perspektiv qisqarishlar haqida tushuncha beradi.

Mavzu bo'yicha amaliy ish.

13-mavzu. Antik davrga mansub haykal qalamtasviri. Naturani tasvirlashda uning materiallik xususiyatlari va anatomik tuzilishiga e'tibor bergan holda ifodalashda yorug'-soya imkoniyatlaridan foydalanish. Mavzu bo'yicha amaliy ish.

2 – SEMESTR

ARXITEKTURAVIY RANGTASVIR.

Arxitekturaviy rangtasvir bo'limi atrof muhitni tafakkur etish va badiiyshakllarni ifodalash, real borliqni butun boyligini namoyon etgan holda tasvirlash, badiiy obrazlar shaklini amalga oshirish, yorug'-soya, umumtus, rang munosabatlarini va tasvir yaxlitligi, naturadan (natyurmort, manzara) ishlash, emotsional badiiy ifodani bera bilish, shartlilik, ashyolilik va fazo sifatlarini rangtasvir ifoda vositalari orqali bera bilish, rangtasvir maktablari va zamonaviy yo'nalishlarini o'rgatadi.

Arxitekturaviy rangtasvir amaliy mashg'ulotlariga quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Rangtasvir san'ati va unda ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar. Natyurmortni grizayl texnikasida ishlash.

Tasviriy san'at haqida umumiy ma'lumotlar. Rangtasvir san'ati va unda ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar. Rang xususiyatlari va rang bilan ishlash texnikalari, yo'nalish va maktablari. Uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat buyum va obyektlarni tasvirlashda ularning konstruktiv tuzilishlarini geometrik shakllar misolida idrok etish, tahlil qilish va tasvirlash. Buyumlarni tasvirlashda akvarel texnikasining grizayl uslubidan foydalanish tartiblari.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

2-mavzu. Natyurmort rangtasvirini ishlash bosqichlari.

Rangtasvir, birinchi navbatda, kompozitsion qurish qonuniyatlarini bilishni talab qiladi. Natyurmortdagi barcha obrazli, ifodali vositalar (chiziq, dog', faktura, rang) yagona kompozitsion yechimni, yagona tamoyilni, g'oyani hal etishga xizmat qilishi kerak.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

3-mavzu. Akvarel texnikasida interyerni tasvirlash. Interyerni tasvirlashda perspektiva qoidalarini chuqur o'rganish kerak. Ushbu bilimsiz, to'g'ri natija bo'lmaydi va agar perspektivada xatolarga yo'l qo'yilsa, hech qanday rangli yechim, hatto eng ifodali rang uyg'unligi jihati ham yordam bermaydi. Chiziqlar va fazoviy planlarda qilingan xatolar nomutanosiblik taassurotini yaratadi. Interyerning elementlari - derazalar, eshik o'yiqlari - rassomning tanlangan kuzatish nuqtasiga qarab burchakli yoki frontal perspektiva qoidalariga muvofiq qurilishi kerak. Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

4-mavzu. Shahar ko'chasi etyudi.

Arxitekturaviy yodgorliklarni tasvirlashda natura tanlash, unda rakurs, monumentallik, konstruksiya, perspektiva, proporsiya kabi elementlarni tasvirlanishi. Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

5-mavzu. Inson boshi etyudi. Inson boshining rangtasvir etyudlarida rang-ton munosabatlari va hajmining umumiy masalalari hal qilinadi. Inson boshining rangtasvirdagi etyudlarida naturaning birinchi taassurotini, uning tashqi ko'rinishining ifodali xususiyatlarini - boshning shakli, soch turmagi, yuzlari, mutanosiblik va rangtasvir xususiyatlar, urg'ularni yetkazish imkonini beradi.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

6-mavzu. Kiyimdagi odam gavdasi rangtasvirini.

Tasviriy san'atning portret janrida ishlash qonuniyatlari. Portret va uning turlari. Portret ishlashdaguash texnologiyasidan foydalanish tartiblari. Tasvirda ifodaviylik hamda uning qonuniyatlaridan foydalanish usullari. Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

ARXITEKTURAVIY HAYKALTAROSHLIK.

Arxitekturaviy haykaltaroshlik bo'limi arxitekturaviy muhitlar loyhasini yaratishdagi asosiy vositalardan bo'lib, talabalarga arxitekturaviy ob'ektning estetik bezagi sifatida ularni hayotiyiligini ifodalash, anglash va badiiy obraz sifatida amalga oshirishni nazarda tutadi. U emotsionallik va mantiqiylikning tabiiy birlashuvi hamda shaklning aniq ifodasi, plastik sifatlari va ashohilik darajasini ichkimazmun bilan yoritilishi, hajmdor elementlarni umumiy arxitekturaviy kompozitsiyadagi munosabatlar qonun-qoidalari, shakl jihatidan murakkab texnika va texnologiyalar, kombinatsiyalarni qo'llashni o'rgatadi.

Arxitekturaviy haykaltaroshlik amaliy mashg'ulotlariga quyidagi mavzulartavsiya etiladi:

1-mavzu. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar. Haykaltaroshlik hom-ashoylariga mexanik ishlov berish va uni tayyorlash texnologiyalari. Gips rozetka relyefini yasash. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar haqida tushunch. Haykaltaroshlik loyi bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari. Haykaltaroshlikda naturaga qarab ishlash usullari va o'ziga xos xususiyatlari. Haykaltaroshlikda naturaga qarab ishlash usullari va o'ziga xos xususiyatlari. Turli ko'rinishdagi rozetkalar va ularning o'ziga qarab tasvirlash yo'llari haqida bilim va malakalar hosil qilish.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

2-mavzu. Natyurmort relyefini naturadan ishlash. Yuzalarining holatiga ko'ra turlicha tekisliklarga ega bo'lgan murakkab kompozitsiya yasash. Kompozitsiyalarga syujetli, bezaklar berish. bo'shliqda perspektiv qisqarishini hisobga olgan holda relyefni qurish tamoyilini tushunish, relyef hajmining shartli ulushini aniqlash.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

3-mavzu: Dekorativ relyef. Dekorativ relyefni bajarishda malakali va izchil ishlashni o'rganish. Ushbu ijodiy vazifa gipsli relyef shaklini ishlab chiqarish va uni materialda amalga oshirish. Dekorativ relyefda turli xil qurish usullari birlashtirilishi mumkin: klassik, shartli-planli, kontrrelyef, ajur. Ko'pincha bezak ishlatiladi. Bu o'quvchiga kelajakdagi relyefning ifodaviy vositalarini tanlashda ma'lum erkinlik beradi. Bundan tashqari, relyefning shakli har xil bo'lishi mumkin: kvadrat, to'rtburchak, oval, doira, erkin shakl. Amaliy ish uchun dengiz bioformasi mavzusi taklif etiladi.

Ishning boshida berilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish kerak. Keyinchalik, kompozitsion va stilistik yechimni izlash bilan qog'ozda eskizlar tayyorlanadi.

4-mavzu: Animalistik dumaloq haykal. Vazifaning maqsadi fazoviy fikrlashni shakllantirish, dumaloq haykalda badiiy tasvirni yaratishda malakali va izchil ishlashni o'rganish. Ish, har doimgidek, ma'lumot to'plashdan boshlanadi: animalistik janrning vazifalari turli davrlarda, turli xalqlar orasida qanday hal qilinganligini o'rganish foydalidir.

5-mavzu. Labning gips modeli asosida uning nusxasini yasash. "Dovud" haykali bosh tuzilishi asosida yuz qismlaridan nusxa ko'chirishni o'ganish(lab). Hajmli haykaltaroshlikning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim va malakalar hosil qilish.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

6-mavzu. Burunning gips modeli asosida uning nusxasini yasash. "Dovud" haykali bosh tuzilishi asosida yuz qismlaridan nusxa ko'chirishni o'ganish(burun).

Hajmli haykaltaroshlikning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim va malakalar hosil qilish.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

7-mavzu. Quloqning gips modeli asosida uning nusxasini yasash. "Dovud" haykali bosh tuzilishi asosida yuz qismlaridan nusxa ko'chirishni o'ganish(quloq). Hajmli haykaltaroshlikning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim va malakalar hosil qilish.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

8-mavzu. Ko'zning gips modeli asosida uning nusxasini yasash. "Dovud" haykali bosh tuzilishi asosida yuz qismlaridan nusxa ko'chirishni o'ganish(ko'z). Hajmli haykaltaroshlikning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim va malakalar hosil qilish.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

9-mavzu. Inson boshi haykalini yasash. Bosh haykalini ishlar ekanmiz, eng qiyin vazifani - shaxs qiyofasini yaratishni hal qilishdan boshlaymiz. Bu ishda ikkita muhim holat mavjud. Birinchisi, naturadan etyudning ijrosi bo'lib, u insonning ma'lum individual qiyofasini o'rganishni anglatadi. Ikkinchisi – portret ustida ishlash bo'lib, u obyektini o'rganish asosida unga tavsif beradi, tasvirlanayotgan shaxsning nafaqat tashqi (bu juda muhim), balki ichki ruhiy holatini ham yetkazishga intiladi.

Mavzu bo'yicha amaliy ish bajarish.

III. 1. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik mashg'ulotlarini o'qitishga mos jihozlar – maxsus stol-stullar va molbertlar, planshetlar, shuningdek, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik kichik guruhlarga bo'lingan holda bir necha professor-o'qituvchilar tomomnidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlatko'rgazmali, faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar (120 soat)

Mustaqil ishlarni talaba tomonidan o'qituvchi rahbarligida bajariladi. Talaba ushbu fan bo'yicha o'qituvchi rahbarligida olgan bilimlarini, o'quv va amaliy ko'nikmalarini auditoriyada amalga oshirishi zarur bo'lgan vazifalarni mustaqil bajarish jarayonida mustahkamlanadi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ishlar uchun mo'ljallangan mavzular naturadanturli grafik ishlar bajarish, etyudlar ishlash, natyurmort, manzara va qalamtasvirga taaluqli o'quv topshiriqlarini bajarishdan iborat.

Mustaqil topshiriqlar hususiyatidan kelib chiqib grafika, rangtasvir va haykaltaroshlik ashoyo va asboblardan foydalangan holda mavzu ustida 10 tadan kam bo'lmagan amaliy ishlar bajariladi (grafit qalam, sangina, ko'mir, sous, tush, akvarel, guash, loy, plastilin va hok. Qog'oz o'lchamlari A5, A4, A3 bo'lishi mumkin, qog'oz tirlari goznak, tarshon, karton va hok).

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning namunaviy mavzulari:

1-semestr Arxitekturaviy qalamtasvir

1. O'simlik dunyosi obyektlarini chizish (qoralama va xomaki tasvirlar).
2. Osmon, yer va suvni chizish (qoralama va xomaki tasvirlar).
3. Odamlarni chizish (qoralama va xomaki tasvirlar).
4. Hayvonot dunyosi shakllarini chizish (qoralama va xomaki tasvirlar).
5. Shahar manzarasi (qoralama va xomaki tasvirlar).
6. Uy ro'zg'or buyumlaridan (qoralama va xomaki tasvirlar).
7. Binolarning arxitekturaviy detallari tasviri.
8. Interyer (binoning ichki ko'rinishi) tasviri.
9. Fantastik arxitektura mavzusida kompozitsiya yaratish.

10. Tasavvurdan geometrik kompozitsiya ishlash.

2-semestr Arxitekturaviy rangtasvir

1. Oddiy landshaft motivlari etyudlari.
2. Tarixiy hovli yoki ko'cha etyudi.
3. Tabiiy muhitda me'moriy obyekt etyudi.
4. Jismlarni shaklidan etyudlar.
5. Hayvonot olamidani etyudlar.

3-semestr Arxitekturaviy haykaltaroshlik

1. Bolalar o'yin maydonchalari uchun dekorativ haykal uchun eskiz variantlari ishlash.
2. Kichik me'moriy shakllar eskiz variantlari ishlash.
3. Imorat bezagi uchun qo'llaniladigan o'simliksimon naqsh kompozitsiyasi relyefini ishlash.
4. Interyer uchun relyef kompozitsiya ishlash.
5. Dekorativ idishlar yasash (vazalar).

Mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ishlar uchun mo'ljallangan mavzular naturadan turli grafik ishlar bajarish, etyudlar ishlash, natyurmort, manzara va qalamtasvirga taaluqli o'quv topshiriqlarini bajarishdan iborat.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Bilish va tushunish jihatidan:

- fan haqidagi nazariy bilimlar hamda amaliy kompetentsiyalarga oid ma'lumotlarni o'rganish;
- me'morlikka oid tarixiy an'analar, tajribalar hamda zamonaviy tendentsiyalarni milliy-hududiy xususiyatlar asosida tahlil qila olish;
- me'morlik sohasidagi arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlikka oid ilmiy-metodik manbalar, mahsus adabiyotlarni

mustaqil tarzda o'rganish hamda shaxsiy xulosalarini tasviriy vositalarda ijodiy-loyihaviy faoliyatga tatbiq eta olish;

- namunaviy loyihalarni ob'ektiv baholash natijasida shaxsiy ijodiy loyihalarni yaratish;
- me'moriy loyihalarning konstruktiv tuzilishi, ularning elementlarinimantiqiy-kompozitsion yaxlitligini tasvirlashda tasviriy san'atning ifodaviy vositalarining optimal turi va texnikasini tanlay olish va ulardan to'g'ri foydalana olish;
- ijodiy loyihalar uchun mustaqil tarzda birlamchi material (namunalar, eskizlar, qoramalar, illyustrativ materiallar va b.) to'plash hamda ulardan ijodiy faoliyatda foydalana bilish.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- interfaol metodlar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

DIQQAT: Topshiriqlar, amaliy ishlar dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzda platformaga joylashtiriladi va talabalar tomonidan bajarilib muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddati tugagandan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor bo'lib hisoblanadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Бобомуратов З.Р. Архитектурный каламтасвир, рангтасвир ва хайкалтарошлик” Дарслик – Т: «Ilm ziyozakovat», 2022 йил, 276 б.
2. Berdiev N.O., Bobomuradov Z.R. Qalamtasvir va rangtasvir fanlaridan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020.
3. Soibov T.Z., Gilmanova N.V., Slugin A.P., Borodina M.R., Tyo A.V.
4. Tursunov Sh.Sh. Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik. Darslik, – Namangan: 2024 yil, 495 b.
5. Gilmanova N.V. Rangtasvirda yorug'lik va rang. – Toshkent: 2012.
6. Gilles Ronin. Drawing for interior designer. Great Britain, London, 2010.
7. Michael Hampton. Figure drawing Design and invention. Wiley, USA, 2010.
8. Tursunov Sh.Sh. Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik. O'quv qo'llanma, – Toshkent: “Lesson press” 2023, 223 b.
9. Tursunov Sh.Sh. Qalamtasvir, rangtasvir. O'quv qo'llanma, – Toshkent: “Dimal” nashriyoti 2024, 223 b.
10. Tursunov Sh.Sh. Haykaltaroshlik. Darslik, - Toshkent: “Lesson press” 2024.

Qo'shimcha adabiyotlar

10. Осмоловская О.В, Мусатов А.А. Рисунок по представлению. – Москва, 2015.
11. Normatov N. Ranglar yurtiga yo'l. – Toshkent: 2013.
12. Soibov T.Z. Rangtasvir va interyer. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2013.
13. Sanaev X.S. Qalamtasvir bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDTU, 2004.
14. Xudoyberganov R. Tasviriy san'atda rang. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2004.

Axborot manbaalari

15. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
16. <http://ziyonet.uz>
17. www.urokiakvareli.ru – rangtasvirda ishlash uslublari
18. www.zaholstom.ru – tasviriy san'at turlari bo'yicha ishlash uchun qo'llanmalar